



**“IQTISODIY DIPLOMATIYA:
O‘ZBEKISTONNING XALQARO MAYDONDAGI
STRATEGIYASI”**

Abduraxmonov Shohruh Sherzod o‘g‘li

Alfraganus universiteti

*Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy
munosabatlar yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Xalmatjanov Farxod Maxammatjanovich

Alfraganus universiteti

Iqtisodiyot fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy diplomatiyasi, uning xalqaro maydondagi o‘rni va ustuvor strategiyalari tahlil qilinadi. Mamlakatning tashqi siyosatida iqtisodiy manfaatlarni ilgari surish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish jarayonlari ilmiy nuqtai nazardan o‘rganiladi. Shuningdek, O‘zbekistonning mintaqaviy va global tashkilotlardagi ishtiroki, xalqaro diplomatiyada iqtisodiy diplomatiya vositalari va ularning samaradorligi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Iqtisodiy diplomatiya, tashqi siyosat, O‘zbekiston, xalqaro hamkorlik, investitsiya, transport-logistika, integratsiya, tashqi savdo.*

Аннотация: *В статье анализируется экономическая дипломатия Республики Узбекистан, её роль на международной арене и приоритетные стратегии. С научной точки зрения изучаются процессы продвижения экономических интересов во внешней политике страны, привлечения иностранных инвестиций, расширения транспортно-логистических возможностей, а также развития торгово-экономического сотрудничества. Также освещается участие Узбекистана в региональных и глобальных*



организациях, инструменты экономической дипломатии в международной дипломатии и их эффективность.

Ключевые слова: Экономическая дипломатия, внешняя политика, Узбекистан, международное сотрудничество, инвестиции, транспорт и логистика, интеграция, внешняя торговля.

Abstract: This article analyzes the economic diplomacy of the Republic of Uzbekistan, its role in the international arena and priority strategies. The processes of promoting economic interests in the country's foreign policy, attracting foreign investment, expanding transport and logistics capabilities, as well as developing trade and economic cooperation are studied from a scientific perspective. Uzbekistan's participation in regional and global organizations, economic diplomacy tools in international diplomacy and their effectiveness are also covered.

Keywords: Economic diplomacy, foreign policy, Uzbekistan, international cooperation, investment, transport and logistics, integration, foreign trade.

KIRISH

XXI asrda davlatlarning xalqaro maydondagi muvaffaqiyati nafaqat siyosiy va harbiy kuchga, balki ularning iqtisodiy diplomatiya yuritish qobiliyatiga ham bevosita bogʻliqdir. Iqtisodiy diplomatiya – bu davlatning tashqi siyosatida iqtisodiy manfaatlarni ilgari surish, eksport salohiyatini kengaytirish, investitsiya oqimlarini jalb etish va xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda faol ishtirok etishni nazarda tutadi.

Oʻzbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirishga intildi. Ammo 2016-yildan keyin Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida tashqi siyosatda pragmatik va ochiqlikka asoslangan yondashuv joriy qilinib, iqtisodiy diplomatiya davlat siyosatining asosiy ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi va rivojlanish bosqichlari yuzaga keldi.

ASOSIY QISM

Iqtisodiy diplomatiyaning mazmuni va ahamiyati har bir mamlakat nufuzini aniqlovchi omillar sirasiga kiradi.



Iqtisodiy diplomatiya – bu diplomatiyaning maxsus yo‘nalishi bo‘lib, davlatning tashqi siyosiy faoliyatida iqtisodiy manfaatlarni ilgari surishga qaratilgan. U uch asosiy funksiyani bajaradi:

- tashqi savdo va eksportni rivojlantirish;
- investitsiya jalb qilish va sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratish;
- transport, energetika va infratuzilma loyihalarida mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish.

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy strategiyasining asosiy yo‘nalishlari – transport-logistika, investitsiya siyosati, eksportni diversifikatsiya qilish va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish. Shu bilan birga O‘zbekiston nafaqat O‘rta Osiyo balki barcha dunyo davlatlari bilan ahil qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik siyosatini olib bormoqda.

O‘zaro kelishuvlar va hamkorliklar orqali esa yuqoridagi yo‘nalishlarda qator o‘zgarishlar sezilmoqda, masalan:

O‘zbekistonning Transport-logistika markaziga aylanish: O‘zbekistonning dengizga chiqish yo‘li bo‘lmaganligi transport yo‘llarini diversifikatsiya qilishni taqozo etadi. “Transafg‘on koridori”, “Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston” temir yo‘li, Kaspiy dengizi orqali savdo yo‘llari shular jumlasidandir.

Investitsiya siyosati: Davlat xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar va yuridik kafolatlarni kengaytirmoqda.

Eksportni diversifikatsiya qilish: Paxta va xomashyo eksportidan tayyor mahsulotlar va xizmatlar eksportiga o‘tish jarayoni jadallashmoqda.

Mintaqaviy hamkorlik: Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo hajmi 2016–2024-yillarda bir necha baravar oshdi. O‘zbekiston–Qozog‘iston, O‘zbekiston–Qirg‘iziston iqtisodiy forumi shular jumlasidandir.

O‘zbekiston diplomatiyasidagi muhim jarayonlardan biri bu – O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlardagi iqtisodiy diplomatiyasidir.

Habarimiz borki, O‘zbekiston BMT, SHHT, MDH, IHT, TDT kabi tashkilotlarda faol ishtirok etib, asosan:

- savdo-sotiqni erkinlashtirish;



- transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish;
- energetika xavfsizligi va “yashil iqtisodiyot” masalalariga urg‘u bermoqda.

Mana shunday imkoniyatlar samarasi o‘laroq esa, 2022–2024-yillarda O‘zbekistonga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi.

Qator rivojlangan davlatlar jumladan, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya va Yevropa mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar jadallashdi.

Har bir mamlakat rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tishi kerak va uning samarasini saqlab, natijadorlikni oshirishi zarur. O‘zbekiston ham o‘zining nufuzini saqlash va rivojlantirish uchun qator “Kelajak strategiya”larini tatbiq qilmoqda, “Harakatlar strategiyasi”, “O‘zbekiston – 2030”, strategiyasi shular jumlasidan.

O‘zbekiston iqtisodiy diplomatiyasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan:

- transport yo‘llarini diversifikatsiya qilish va xalqaro logistika markaziga aylanish;
- yuqori texnologiyali investitsiyalarni jalb qilish;
- xalqaro savdo shartnomalarida faolroq ishtirok etish;
- “yashil iqtisodiyot” va raqamli diplomatiyani rivojlantirish.

XULOSA

O‘zbekistonning iqtisodiy diplomatiyasi xalqaro maydonda davlatning obro‘cini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va xalqaro savdo aloqalarini kengaytirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Tashqi siyosatdagi pragmatik va iqtisodiy manfaatlarga asoslangan yondashuv mamlakatning mintaqaviy hamda global iqtisodiy jarayonlarda faol o‘rin egallashini ta’minlamoqda. Kelgusida esa O‘zbekistonning iqtisodiy diplomatiyasi nafaqat Markaziy Osiyo, balki kengroq xalqaro iqtisodiy tizimda ham integratsiya va taraqqiyot omili sifatida shakllanishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:



1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent, 1997.
3. Abdurahmonov Q.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti – www.mfa.uz(<https://www.mfa.uz/>)
5. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum. – Washington, 2023.
6. United Nations Development Programme (UNDP). Uzbekistan: Trade and Economic Cooperation Report, 2022.